



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot
usullari**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ZOKIROV BEXZODJON ILXOMJON-O'G'LI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: TURDIXO'JAYEVA MAHLIYOXON MUKIMXO'JA QIZI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260021
Xulosa raqami	937
Xulosa sanasi	11.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Guvohnoma: MAS № 0000162, 22.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70220303
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000162, 22.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70220303 – Historiography, source studies and historical research methods
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70220303 – Историография, источниковедение и методы исторического исследования
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tarixshunos-manbashunos, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	40 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha magistratura dasturining tashkiliy-boshqaruv asoslari, strategik rivojlanish rejasi va ichki sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgan bo'lib, yo'nalish muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasini huquqiy jihatdan shakllantirilgan, uning vakolatlari va faoliyat yo'nalishlari universitetning strategik maqsad va vazifalari bilan uyg'unlashtirilgan. Kafedraning ilmiy-pedagogik salohiyati yuqori bo'lib, ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar ulushi qariyb 80 foizni tashkil etadi. Bu magistratura bosqichida yuqori tahliliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash hamda zarur ilmiy muhitni shakllantirish uchun yetarli imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, mavjud moddiy-texnik bazaning tavsifi umumiy ko'rinishda berilgan bo'lib, uni aniq ko'rsatkichlar va indikatorlar bilan asoslash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda strategik rivojlanish rejasining natijaga yo'naltirilganligi sifat monitoringini ta'minlaydi. Tashkiliy-boshqaruv va ichki sifat tizimi ta'lim dasturining ilmiy-tadqiqot yo'nalishini qo'llab-quvvatlash uchun zarur institutsional asoslarni yaratgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturida maqsadlar, kutilayotgan o'quv natijalari, kompetensiyalar, fanlar tarkibi va o'quv yuklamalari o'zaro mantiqiy bog'liqlik asosida shakllantirilgan. Ta'lim dasturi magistratura bosqichida tarixiy tafakkur, manbalarga tanqidiy yondashuv, ilmiy xulosa chiqarish hamda mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayoni ishchi guruhlar, kafedra muhokamalari, fakultet ilmiy-uslubiy kengashi, O'quv-uslubiy kengash hamda Akademik kengash bosqichlaridan

o'tkazilgan bo'lib, bu qaror qabul qilishda kollegiallik va shaffoflik tamoyillariga amal qilinganini hamda ta'lim dasturining akademik jamoatchilik tomonidan ko'rib chiqilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ish beruvchilar va soha mutaxassislarining takliflari umumiy tavsifda aks ettirilgan bo'lib, ularning ishtirokini yanada batafsil hujjatlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Fanlar fundamental, mutaxassislik va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha izchil joylashtirilgan bo'lib, bu bilim va ko'nikmalarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim dasturi mazmuni ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan holda milliy standartlar asosida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. O'quv jarayoni, ishchi o'quv rejalari, sillabuslar hamda o'quv natijalarini baholash tizimi me'yoriy-huquqiy asoslarda va amaliyotga yo'naltirilgan holda shakllantirilgan. Ta'lim dasturida tarixiy tafakkur, manba tahlili, ilmiy-tadqiqot metodologiyasi hamda akademik yozuv madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi fanlar izchil joylashtirilgan bo'lib, ularning maqsadlari, o'quv natijalari va baholash mezonlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlangan. O'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislarini jalb etish mexanizmi kafedra kengashi bayonnomalari bilan tasdiqlangan. Manbashunoslik yo'nalishi uchun amaliyot bazalari va manbalar bilan ishlash muhitining yaratilganligi ilmiy ko'nikmalarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning takliflari umumiy tavsifda aks ettirilgan bo'lib, ularni yanada aniq va dalillangan tarzda hujjatlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. O'quv jarayoni va baholash tizimi shaffof, natijaga yo'naltirilgan hamda ilmiy-amaliy komponentlar bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Qabul jarayonlari bo'yicha universitetda aniq mezonlar, hujjatlar aylanishi, baholash tartibi, apellyatsiya mexanizmi hamda natijalarni ochiq e'lon qilish tizimi shakllantirilgan. Qabulga oid ma'lumotlar rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, call-center va maxsus platformalar orqali e'lon qilinishi ta'minlangan bo'lib, bu abituriyentlar uchun axborotga teng va tezkor kirish imkoniyatini yaratadi hamda qabul jarayonining

shaffofligini ta'minlaydi. Qabul parametrlari universitet infratuzilmasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari va akademik profili bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, resurslar va talabalar soni o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Talabalar harakatini, jumladan kursdan-kursga o'tkazish, chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar hamda talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirilgan bo'lib, ular talabaning ta'lim traektoriyasini himoya qiladi. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va resurslar bilan muvozanatlashgan tizim asosida tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha inson resurslari salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Professor-o'qituvchilar soni, ularning asosiy shtatdagi ulushi hamda ilmiy daraja va unvonga ega pedagoglar salmog'i yuqori bo'lib, magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun zarur akademik muhit shakllantirilgan. Kafedra tarkibida tarixshunoslik, manbashunoslik, O'zbekiston tarixi, paleografiya, matnshunoslik va tarixiy tadqiqot usullari bo'yicha ilmiy darajaga ega mutaxassislar faoliyat yuritishi ta'lim dasturi mazmuni bilan kadrlar salohiyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. Asosiy mutaxassislik fanlarining tegishli ilmiy ixtisoslikka ega professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilishi kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga muvofiqligini tasdiqlaydi. Boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi ham ta'lim jarayonining tashkiliy barqarorligini ta'minlaydi. Inson resurslari bazasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda uning ilmiy-tadqiqot maqsadlariga erishish uchun yetarli darajada mustahkam va mutaxassislikka mos asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning yetarlilik darajasi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Universitetda zarur moddiy-texnik, o'quv-uslubiy, axborot-resurs va raqamli infratuzilma shakllantirilgan bo'lib, 526 ta obyekt, 350 ta o'quv auditoriyasi, 221 ta amaliy va seminar xonasi, 18 ta laboratoriya xonasi, 20 ta kompyuter sinfi hamda 23 ta maxsus kabinet ta'lim jarayonini uzluksiz tashkil etish imkonini beradi. Magistratura dasturi uchun arxiv, muzey, axborot-resurs markazi va Arxeologiya instituti filiali kabi amaliyot bazalarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular tarixiy manbalar bilan ishlash, manbashunoslik, arxiv hujjatlarini tahlil qilish hamda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur amaliy muhitni ta'minlaydi. O'quv va laboratoriya xonalari talabalar

kontingentiga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, auditoriya maydonlari me'yoriy ko'rsatkichlarga muvofiqligi ta'minlangan. Moddiy-texnik ta'minot mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun yetarli hamda ishonchli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Mavjud moddiy-texnik baza va resurs ta'minoti hujjatlarda umumiy so'zlar bilan ta'riflangan bo'lib, aniq va o'lchanadigan ko'rsatkichlar bilan asoslanishi talab etiladi.
- ✓ Ish beruvchilar va soha mutaxassislarning takliflari ko'proq umumiy tavsif darajasida aks etgan; ularning ishtirokini aniq va dalillangan tarzda hujjatlashtirish tavsiya etiladi.
- ✓ O'quv-metodik va ilmiy-tadqiqot resurslarini muntazam yangilab, kengaytirib borish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Moddiy-texnik baza va resurs ta'minotini aniq, o'lchanadigan ko'rsatkichlar bilan asoslab, ularni indikatorlar asosida hujjatlashtirish.
- ✓ Manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari) ishtirokini aniq takliflar va dalillar bilan hujjatlashtirish.
- ✓ Tarixiy manba, arxiv va ilmiy-tadqiqot resurslariga kirishni kengaytirish hamda o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Buxoro davlat universiteti" davlat muassasasida 70220303 – "Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrası

tarkibidagi yuqori ilmiy salohiyatli (ilmiy darajali o'qituvchilar ulushi qariyb 80 %) kadrlar, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan o'quv dasturi hamda arxiv, muzey va arxeologiya instituti filiali kabi amaliyot bazalari shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — moddiy-texnik bazani aniq ko'rsatkichlar bilan asoslash va manfaatdor tomonlar takliflarini hujjatlashtirish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

